

NODIRA VA UVAYSIY SHE'RIYATIDA ILOHIY OBRAZLARNING BADIY TALQINI

Novruzova Nozima Norqulovna,
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti
nozimanavruzova91@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asr o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakillari Uvaysiy va Nodira ijodida ilohiy siymolar talqini tahlil qilinadi. Tadqiqotda Qo'qon adabiy muhiti, tasavvufiy qarashlar hamda islomiy qadriyatlarning badiiy ifodasi yoritiladi. Shoiralar ijodida Alloh, payg'ambarlar, avliyolar va tasavvuf pirlari obrazlari orqali insonning ruhiy kamoloti, imon, sabr va ilohiy ishq g'oyalari aks etganligi ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari o'zbek mumtoz she'riyatida ayol ijodkorlar poetikasini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Nodira, Uvaysiy, ilohiy obrazlar, payg'ambarlar siymosi, tasavvuf, ilohiy ishq, badiiy talqin.

Аннотация. В данной статье анализируется интерпретация божественных образов в творчестве великих представителей узбекской классической литературы XIX века Увайси и Надир. В исследовании освещается литературная среда Коканда, суфийские взгляды и художественное выражение исламских ценностей. Показано, что в творчестве поэтесс через образы Аллаха, пророков, святых и суфийских наставников отражены идеи духовного совершенства человека, веры, терпения и божественной любви. Результаты исследования служат более глубокому пониманию поэтики женщин-творцов в узбекской классической поэзии.

Ключевые слова: Надир, Увайси, божественные образы, образы пророков, суфизм, божественная любовь, художественная интерпретация.

Abstract. This article analyzes the interpretation of divine figures in the works of Uvaysiy and Nodira, two prominent representatives of 19th-century Uzbek classical literature. It examines their religious-aesthetic views, Sufi thought, and the artistic expression of Islamic values within the Kokand literary environment. The study demonstrates that themes such as spiritual perfection, love, patience, faith, and moral purity are conveyed through the images of Allah, prophets, saints, and Sufi masters in the poetry of these women poets. The findings contribute to a deeper understanding of the religious and Sufi dimensions of Uzbek classical poetry, particularly in the works of women poets.

Keywords: Nodira, Uvaysiy, divine images, prophets, Sufism, divine love, artistic interpretation.

Kirish. XIX asr o'zbek adabiyoti o'zining diniy, ma'naviy va falsafiy mavzularni o'z ichiga olganligi bilan ajralib turadi. Shu jihatdan bu davr mumtoz adabiyotimizda alohida o'ringa ega va u tarixan islom dini bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu bog'liqlik jamiyatning ma'naviy-axloqiy taraqqiyotida muhim o'rin tutgan. Ayniqsa, Qo'qon adabiy muhitida tasavvufiy adabiyot yetakchilik qilib, unda Alloh ishq va payg'ambarlar siymolari keng badiiy talqin etilgan. Bu an'anani ayol shoiralar ham o'ziga xos tarzda davom ettirib, diniy obrazlar orqali inson ruhiy kamoloti, imon va muhabbat g'oyalarini ifodalaganlar.

Jahon otin Uvaysiy va Mohlaroyim Nodira XIX asr o'zbek adabiyotining yetuk vakillari sifatida diniy-estetik tafakkurni yuksak poetik darajada aks ettirgan shoiralardir. Ularning ijodida ilohiy siymolar talqini o'xshash jihatlariga ega bo'lsa-da, har biri o'ziga xos badiiy va ruhiy talqin bilan ajralib turadi.

Adabiyotlar tahlili. Qo‘qon shoiralari ijodi XIX asr oxiri XX asr boshlaridan e‘tiboran jiddiy o‘rganila boshlangan. Ularning devonlari va ijodiy merosi bir qancha olimlar tomonidan turli aspektlarda o‘rganila boshlangan va adabiyotimiz maydoniga taqdim qilingan. O‘zbek adabiyotida shoira Nodira, Uvaysiy, Dilshodi Barno ijodini o‘rganishni M. Qodirova, A.Qayumov, T.Jalolov, E.Ibrohimovalar boshlab bergan bo‘lsalar, I.Adizova, S.Eshonqulova kabi adabiyotshunoslar bu ishni shoira ijodining boshqa jihatlarini o‘rganish bilan davom ettirishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotlar natijasida shoiralarning shaxsiyati, dunyoqarashi, she‘riyatidagi o‘ziga xosliklar biografik va qiyosiy-tipologik metodlar bilan ochib berilgan. Shuningdek, Uvaysiy va Nodira asarlarida ilohiy obrazlarning o‘ziga xos badiiy talqini, ularning o‘xshash va farqli jihatlarini qiyosiy tahlil qilinadi.

Tahlillar va natijalar. Jahon otin Uvaysiy o‘zbek mumtoz she‘riyati tarixida o‘ziga xos ruhiy-falsafiy olami, sof tasavvufiy qarashlari bilan ajralib turuvchi shoiralardan biri bo‘lib, uning g‘azallari islomiy tafakkur, ixlos, sabr va Allohga bo‘lgan muhabbat bilan sug‘orilgan. Shu sababdan shoira o‘z she‘riy merosida islomiy ruhiyat va diniy obrazlarga keng o‘rin ajratgan. Uning asarlarida Qur‘on, hadis va tasavvufiy tafakkur asosida shakllangan ilohiy obrazlar, payg‘ambarlar va avliyolar tez-tez tilga olinadi. Shoira she‘rlarida Allohga intilish, bu yo‘ldagi qiyinchiliklarga sabr-qanoatli bo‘lish madh etilgan:

Uz diling taalluqdin, band qil xudo sori,

To degil kecha-kunduz: “Mosivo Uvaysiyman!” [2.114]

Baytda shoira dunyoviy bog‘liqliklardan voz kechib, Allohga to‘liq taslim bo‘lishga chaqiradi. U Allohning yagonaligi, rahmati, adolati va qudratini o‘zining tasavvufiy ruhi orqali kuylaydi. Shoira bu ruhni, pok muhabbatini Alloh Rasuliga bog‘lagan zot Uvays Qaraniy siymosida ham aks ettiradi:

So‘zni vahm etmay degil hozir bilib sohibqiron

Tarbiyat qilsa yetim nomig‘a Vaysul – Qaran. [1.218]

Uvaysiy hamnomi bo‘lgan Uvays Qaraniy nomini ko‘p bora tilga oladiki, taxallusini ham bu ulug‘ zot nomiga ixlos sifatida qo‘ygan, degan qarashlar mavjud.

Umidim to‘la rahmatingdin, iloh,

Ki hamnom Vays ul Qarandur mango. [3.158]

Bu zot haqida Mustafo Najotiy Bursali shunday ma‘lumotlar bergan: “Uvays hazratlari chinakam ishqqa mubtalo bo‘lgan edilar. Alloh Rasulining nurli jamolini ko‘rishni orzu qilib Yamandan nur o‘lkasi Madinaga keladi, ammo oxirat mujdasini ko‘rolmay, ortga qaytadi. Alloh Rasuli (unga) muborak hirqalarini hadya qiladilar” [7.3].

Shu jihatdan bo‘lsa kerakki, adabiyotshunos Sultonmurod Olim Uvaysiyini “Qadim mashoyixlarimizdan birining ruhi kelib tarbiya qilgandir”— deya o‘z qarashlarini bayon qilgan. [8.69]

Uvaysiy ijodida tasavvufiy ruh, Allohga muhabbat va axloqiy poklik g'oyalari yetakchi o'rinda turadi. Shoira g'azallarida "Bihamdillah" (Allohga hamd bo'lsin) kabi hamd ifodalari hamda payg'ambarlar zikri tez-tez uchraydi. Bu esa uning diniy-estetik qarashlarining muhim jihatini ko'rsatadi:

Bihamdillah saodatdur menga ul do'st payg'omi

Xayoli lavhidin zoil emas chunkim gulandomi. [1.272]

Bayt an'anaviy tarzda Allohga hamd bilan boshlangan va unga yaqinlashishdagi ruhiy holat aks etgan. Shoira o'zining ilohiy ishqqa chulg'angan holatini va qalbidan Alloh yodi hech qachon chiqmasligini bayon qilmoqda.

Uvaysiy ijodida tasavvufiy ruh, axloqiy poklik va ruhiy yetuklik g'oyalari markaziy o'rinda turadi. Shu sabab u mashhur siymolardan biri Xo'ja Ahror Valiyga alohida ehtirom bilan yondashadi va o'ziga pir deb bilgan bu zotga ixlos-u sadoqatini ochiq bayon qiladi:

Manzuli kuyi aloyiq bandidin ozodmen

To tariqi Xo'jai Axrora oshiq bo'lmisham. [1.203]

Ma'lumki, Xoja Ahror Valiy Naqshbandiya tariqatining yirik vakili va bu tariqatni Movarounnahrda keng yoygan mashhur so'fiylardan biri bo'lgan. Shoira she'riyatida bu siymo ruhiy yo'lga yetaklovchi tarixiy namuna bo'lib xizmat qilgan va bu, ma'lum ma'noda, shoira e'tiqodini ham belgilab beradi.

Ilohiy ishqni kuylash borasida Nodira she'riyati Uvaysiy ijodi kabi qimmatlidir. Mohlaroyim Nodira o'z zamonasining nafaqat siyosiy, balki ma'naviy hayotida ham muhim o'rin egallagan shoiradir. Shoira ijodi bo'yicha tadqiqot olib borgan adabiyotshunos olim Aziz Qayumov shoira she'riyati haqida shunday yozgan: "Uning she'rlari ham shakl, ham mazmun jihatidan tamomila original she'rlardir. Shoira devonida taqlid, payrav she'rlar mutlaqo uchramaydi. Uning har bir g'azali mustaqil, original asardir" [9.155].

Nodira she'riyati mavzusi ishqdir. Uning she'rlaridagi muhabbat yori Amir Umarxonga va Allohga bo'lgan muhabbatdir. Barcha ta'rif va tavsiflar, ishtiyoq va intilishlar ungapdir.

So'fiylarning e'tiqodiga ko'ra, dinning tub mohiyati – ishq-muhabbatdir. Ma'lumki, majoziy ishq atamasi insonning insonga muhabbati va olam go'zalligiga oshiqlikni bildiradi. Ammo majoziy muhabbat o'tkinchidir. Hech qachon so'nmaydigan haqiqiy muhabbat – bu Allohni jon-dildan sevishdir.

Nodira may va sharob tasavvufiy obrazlari orqali ilohiy, ya'ni haqiqiy ishqqa yetishish yo'lida kechadigan iltirob va sabrni ifodalagan. Hajr dardi may bilan yengillashadi, deya shoira ruhiy yetuklikka intilishning poetik ifodasini yaratgan:

Soqiyo, hajr davosini demishlar mayi nob,

Tutako'r maykadada qayg'uluq oshiqqa sharob. [5.33]

Bu davrda majoziy (dunyoviy) ishqni kuylash ham, haqiqiy (ilohiy) muhabbatni vasf etish ham ayol kishi uchun oson bo'lmagan. Mana bu otashin bayt shundan nishona:

Man'i muhabbat na qilursan menga,
Ramzi haqiqat erur ishq majoz.

Mazkur baytda Nodira majoziy va haqiqiy ishq o'rtasidagi tasavvufiy bog'liqlikni ifodalaydi. Shoira majoziy muhabbatni inkor etmay, aksincha, uni ilohiy ishqqa eltuvchi ramziy bosqich sifatida talqin qiladi. Shu orqali u tasavvuf falsafasidagi ishq g'oyasini badiiy jihatdan asoslab beradi. Nodira uchun muhabbat – Alloh tomonidan inson qalbiga solingan ilohiy nurdir. Shoira she'rlarida Allohga murojaat tez-tez ko'zga tashlanadiki, bu shoira ijodidagi muhabbat ishq ilohiy ekanligini ko'rsatadi:

Kuyib, ey Nodira, olam elig'a
Muhabbat shevasini oshkor et. [5.18]

Baytda shoira muhabbatni butun olamga tarannum etishni, uni yoritishni tavsiya etadi. Bu esa Allohga bo'lgan muhabbatni, ya'ni ilohiy ishqni boshqalarga yetkazish istagini ifodalaydi. Shoira she'riyatining shu jihati tahliliga adabiyotshunos olim shunday deganlar: "Mohlaroyim Nodira islom diniga samimiy e'tiqod qo'ygan, tasavvuf maslagiga mehr bog'lagan komila musulmon shoira edi. Nodira islom va tasavvuf yo'nalishida katta kitoblar yaratmagan, tafakkur tarixida iz qoldirgulik kashf-u karomatlar ko'rsatmagan bo'lsa-da, davlat arbobi sifatidagi faoliyatini bu ezgu yo'lda shu qadar fidoyilik bilan safarbar etdiki, uning sa'y-harakati natijasida din hamda millat takomili uchun tabiiy sharoit vujudga keldi. Shoiraning amaliy faoliyati nazariy va ma'rifiy yutuqlar omili bo'ldi". [12.290]

Shoira asarlarida Muhammad (s.a.v.) obrazi, birinchi navbatda, ahli-sunnatning mukammal, ya'ni komil insoni va qalbni tarbiyalovchi nur sifatida tasvirlanadi. U o'zining sadoqati, rahm-shafqati va iymoni bilan o'quvchining o'z qalbini poklashga undaydi. Ya'ni bu obraz orqali faqat tarixiy shaxs emas, balki insoniyat uchun ideal fazilatlar majmuasini – sadoqat, rahm-shafqat, ruhiy kamolot timsolini yaratadi. Bu obrazning yoritilishida Nodira xususiyati, nafaqat diniy bilimlarni, balki shaxsiy iztirob va ruhiy kechinmalarni ham aks ettiradi:

Jahonda xisravi jannat makon adl ixtiyor etdi,
Qiyomat kun shafii Ahmadi Muxtor qil, yo rab. [4.68]

Shoira dunyoviy hayotda adolatni asosiy mezon sifatida ulug'lab, oxirat najotini esa Payg'ambar (s.a.v.) shifoati bilan bog'laydi. Bu esa baytda dunyoviy adolat va ilohiy rahmat o'zaro uyg'un ifoda topganini ko'rsatadi.

Badiiy adabiyotimizda, ayniqsa, Sulaymon payg'ambar obrazi eng ko'p badiiy talqin qilingan obrazlardan biri sanaladi. Sulaymon – Qur'ondagi dono podshoh payg'ambar bo'lib, tasavvufda u ilohiy haqiqatga yetgan rahbar sifatida talqin qilinadi. Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" va Alisher Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo"

asarlarida ham Sulaymon payg‘ambar va uning fazilatlari haqida ma‘lumotlar keltirilishi fikrimiz dalilidir. Nodira she‘riyatida ham Sulaymon obrazi o‘ziga xos tarzda talqin qilingan:

Marhabo, ey payki sulton marhabo,

Hudhudi Mulki Sulaymon, marhabo. [5.6]

Baytda shoira kutilgan kishini hudhudga qiyoslash orqali go‘zal o‘xshatish qiladi. Bu tashbeh vositasida obrazlilik va ma‘naviy teranlik yaratilgan. Ma‘lumki, hudhud — Qur‘oni Karimda Sulaymon payg‘ambarning elchisi sifatida eslatiladi va u Bilqis haqidagi xabarni yetkazgan: “Men bir ayolni ko‘rdim. U ularning malikasi ekan. Unga barcha narsadan ato etilgan bo‘lib, ulkan taxti ham bor ekan”. (Qur‘oni Karim. Naml surasi, 23-oyat). Bilqis Sulaymon nikohida bo‘lgan go‘zal ayol. Sabo shahrining malikasi. [10.265]. Bu obrazlar g‘azalning ruhiy-ma‘naviy mazmunini oshirishga xizmat qilgan:

Bul mo‘ri xastadin degil, ey hudhudi sabo,

Taxti adolat uzra Sulaymon bandalig‘. [6.207]

Baytda shoira o‘z dardini sabo yeli orqali yetkazmoqchi, buni esa yana hudhudga topshiradi. Chunki hudhud yuqorida aytganimizdek, Sulaymon payg‘ambarning elchisi bo‘lib, adolat va haqiqatni yetkazishga xizmat qilgan. Shu jihatdan bu ikki obraz nomi badiiy adabiyotda ko‘pincha yonma-yon qo‘llanadi. Shoira payg‘ambarlar obrazi orqali yor (Alloh)ni va turmush o‘rtog‘i Umarxonni tasvirlaydi. Bu haqda shoira ijodi bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan adabiyotshunos olimlardan biri shunday yozadi: “Nodira lirikasida Sulaymon bilan bog‘liq voqea-hodisalarga ishora qilish orqali, shoiraning g‘oyaviy-estetik dunyoqarashi ochib berilgan. Uning nazmiy asarlarida Sulaymon payg‘ambarga xos muayyan sifatlar ma‘shuqqa ko‘chiriladi. Bunday baytlarda yor ulug‘lanadi, ijodkorning badiiy-estetik idealini o‘zida mujassam etadi.” [13.13]

Nodira asarlarida Sulaymon (a.s) obrazi ko‘proq adolatli podshoh va ilohiy ilmlar egasi sifatida yuksak e‘tirof etiladi. Shoira she‘rlarida Sulaymon (a.s) faqat dunyoviy saltanat emas, balki ruhiy kamolot va aql-idrok namunasi sifatida tasvirlanadi. Shoira uchun Sulaymon (a.s) Allohga yaqinlik va haqiqatni anglashga intilish natijasidir.

Shoira Uvaysiy she‘riyatida ham Sulaymon (a.s) obrazi turli shakl va mazmunda ifodalangan:

Meni jonona kuyinda ko‘rub fikr etma, ey zohid,

Sulaymon oldida to had oro bo‘lsa murinda. [1.249]

Tasavvuf adabiyotidan ma‘lumki, zohid – tavba va taqvo yo‘lidagi inson. Ya‘ni shoira zohidga murojaat qilib, uni yorning ko‘yida deb tashqi holatiga qarab o‘zicha xulosa chiqarmaslikni so‘raydi. Chunki haq yo‘liga kirganlar Sulaymon singari haqiqatga yetgan rahbar oldida ziynatlidir. Uvaysiy asarlarida Sulaymon (a.s) obrazi donishmandlik, adolat va kuch-qudrat timsoli sifatida talqin etiladi.

Ko‘ngul mulkig‘a shoh erdi xayoling necha soatlar,

O‘zung dil taxtida bir dam turub, mulki Sulaymon tut. [2.40]

Baytda shoira ko‘ngil, tasavvur va ilohiy tajribaning ramziy manzarasini yaratgan. Ya‘ni, shoira “sening xayollaring ko‘ngil saltanatida necha soatlab shoh bo‘lib turdi, endi esa o‘zing dil taxtiga bir lahzagina chiqib, Sulaymon singari butun qalb saltanatini egalla”, deya bayon qilgan.

Har ikki shoiraning yondashuvida Sulaymon siymosi orqali dunyoviy saltanat va abadiy ilohiy qadriyatlar o‘rtasidagi ziddiyat poetik mahorat bilan tasvirlanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, payg‘ambarlar siymolari shoirlar Nodira va Uvaysiy ijodida nafaqat tarixiy shaxs, balki axloqiy va diniy g‘oyalarni ifodalovchi timsol sifatida xizmat qiladi. Ularning she‘riyatida payg‘ambarlarning turli xildagi qudrati orqali ilohiy buyuklik, ruhiy komillik, shukronalik, adolat va haqiqat izlash kabi mavzular tahlil etiladi. Shoirlar payg‘ambarlar siymosi orqali Allohga intilish, muhabbatni ulug‘lash, sabr va fidoiylilikni targ‘ib etadilar.

Uvaysiy uchun payg‘ambarlar siymosi diniy rivoyatgina bo‘lib qolmay, balki ruhiy va axloqiy kamolot sari yetaklovchi vositadir. Bu obrazlar orqali o‘z zamonasining ma‘naviy muammolariga yechim topishga intiladi, qalblarni uyg‘otishga harakat qiladi.

Shoira Nodira diniy obrazlarni ko‘proq zohiriy tafsir, ya‘ni diniy axloq, ma‘naviy poklik va go‘zallik mezoni sifatida yoritadi. Bu ilohiy obrazlar orqali jamiyatni axloqiy tarbiyalash, to‘g‘ri yo‘lga boshlash kabi didaktik maqsadni ko‘zlaydi.

Har ikki shoira ijodida payg‘ambarlar siymosi komil inson timsoli sifatida talqin qilinib, ular orqali adolat, sabr, iymon va ilohiy ishq g‘oyalari badiiy yuksaklikda ifodalangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Увайсий. Девон. Нашрга тайёрловчи Қаюмов А., Иброҳимова Э. –Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1959. – 249 б.
2. Увайсий. Мазмун маъдани. Шеърлар. – Тошкент: Akadernashr, 2010.
3. Увайсий. Кўнгил гулзори. – Т.: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1983.
4. Нодира. Асарлар. Икки жилдлик. I китоб. – Т.: Фафур Фулом номидаги бадий адабиёт нашриёти, 1968.
5. Нодира. (ғазаллар). Нашрга тайёрловчи Қаюмов А. ЎзССР давлат бадий адабиёти нашриёти. Т., 1958. 54 б.
6. Нодира-Комила. Девон. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2001.
7. Мустафо Нажотий Бурсали. Ҳазрати Увайс Қараний. – Toshkent. 2007.
8. Султонмурод Олим. Ишқ, Ошиқ, Маъшук. – Тошкент: Фан, 1996.
9. Азиз Қаюмов. Асарлар. 10 томлик 7- жилд, 1- китоб. Тошкент, 2010.
10. N.Rabg‘uziy. Qisasi Rabg‘uziy. – Т.: Yozuvchi, 1991. – 272 б.
11. Қуръони карим: маъноларининг таржима ва тафсири (таржима ва тафсир муаллифи А.Мансур). – Тошкент: Tafsir-books, 2022.
12. N. Jumaxo‘ja, Adizova I. O‘zbek adabiyoti tarixi. Т., Noshir, 2019. 432 б.